

TURIZMGA OID TERMINLARNI TOIFALASH TAMOYILLARI VA O'ZLASHTIRISH XUSUSIYATLARI

In the name of Islam Karimov Tashkent State Technical University Katta o'qituvchi of "o'zbek tili va adabiyoti" Department

Raximova Furuza Shavkatovna

Abstract: Keyingi yillarda turistik xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashni yo'lga qo'yish maqsadida maxsus ilmiy kadrlarni tayyorlaydigan yangi oliy ta'lim muassasalari (Ipak yo'li xalqaro turizm universiteti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti qoshidagi xalqaro turizm fakulteti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti) ochildi. Bu turizm sohasining ilmiy, o'quv va ishlab chiqarish bazasiga ega bo'lgan sohalar qatoriga kiritildi va jadal rivojlanishiga olib keldi. Ushbu amaliyot turizmga oid terminlarning ham ko'plab o'zlashishiga shart-sharoit yaratildi. Turizm O'zbekistonda ilmiy yo'nalish sifatida endigina rivojlana boshladi. Turistik xizmatlar sohasi aksariyat hollarda boshqa tillardan o'zlashgan keng lug'at bazasidan foydalanishga yo'naltirilgan.

Key words: statistik, turizm, mintaqa, sayohat, English, Uzbek, theory, linguistics, term, social life.

Butunjahon Savdo tashkiloti tomonidan 1981 yilda Madrid shahrida o'tkazilgan Turizm bo'yicha xalqaro anjuman materiallariga ko'ra, turizm u yoki bu mintaqalarni, yangi davlatlarni ko'rib-bilish maqsadida amalga oshiriladigan va qator davlatlarda sport bilan birga qo'shib olib boriladigan sayohatlardan iborat faol dam olish turlaridan biridir.

1993 yilda BMTning Statistika komissiyasi turizmga berilgan ushbu ta'rifni tasdiqlab, *turizm* – insonlarning odatdagi muhitidan tashqarida bo'lgan joylarga, dam olish, xizmat faoliyati va boshqa maqsadlarida amalga oshiriladigan sayohat faoliyatidir.

Shuni qayd etish lozimki, oxirgi bir necha o'n yil ichida O'zbekistonda turizm sohasi keng rivojlandi. Ma'lumki, qadimiy Buyuk Ipak yo'li markazida joylashgan Mavarounnaxr, bu yerdagi qadimiy shaharlar jahon ahlini o'ziga jalb qilib kelgan. Olib borilgan tadqiqotlar jarayonida so'nggi yigirma yil davomida nihoyatda ko'p o'zlashgan so'zlar kirib kelishi kuzatildi. O'zlashgan so'zlarning ko'lami ancha keng bo'lganiga qaramay (fransuz tilidan (*bagaj, kupe*); golland tilidan (*reys*); nemis tilidan (*agent, kayuta*), polyak tilidan (*kvartira*) va hokazolardan) tarixiy sabablarga ko'ra turizmga oid kasbiy sohada ingliz tili eng ko'p qo'llanadigan til deb e'tirof etilgan (*kruiz, vagon, motel, branch, vaucher*).

Turizm sohasiga oid terminlarda aks etgan tushunchalar, eng avvalo, inson omili bilan bog'liq. Hozirgi sharoitda inson va unga tegishli bo'lgan barcha holatlarga qiziqish ortib borayotgani kuzatilmoqda bu esa o'z navbatida, turizmga xos terminlarda ham aks etadi. Demak, olib borilayotgan tadqiqotning bu soha terminologiyasini yaratilishida ishtirok etgan eng samarali so'z yasalishi usullari va morfologik modellarini aniqlash, bu bilim sohasining kelgusida qanday rivojlanishini bashorat qilishda dolzarb ahamiyatga ega. Terminlarning tarkibiy tuzilishini tahlil qilish, ularning namunaviy morfemali modellari shakllanishi qonuniyatlarini o'rganish terminologiyaga oid tadqiqot ishlarining o'ziga xos bo'lib, ushbu sohaviy maxsus birliklarini yaratishda ishtirok etuvchi modellarning samaradorligini aniqlash, ularning qanday usullar yordamida shakllanishi va keyingi rivojlanishini bashorat qilish bilan shug'illanadi. Bu o'rinda avvalo, atama va termin so'zlari o'rtasidagi va ularning

qo'llanilishidagi farq-tafovutni bilish kerak. Shu mavzu ustida tadqiqot ishi olib borgan R. Doniyorov bu borada quyidagi ta'riflarni keltiramiz: atamalarning o'ziga hos xususiyati, avval ushbu atamalar ham mutaxassislariga, ham aholining keng qatlamlariga mo'ljallangan bo'lib, bu termini va "termin bo'lmagan so'zni" farqlash jarayonini ma'lum darajada osonlashtiradi. Terminologik leksikaning har qanday sohasida leksik shakllar tarkibiy turlarini tadqiq etish maxsus birliklarning ikkita asosiy turini so'z terminlar (bir komponentli, monoleksemali terminlar) va birikmali-terminlar (ko'p komponentli terminlar, polileksemali terminlar) ajratib ko'rsatishdan boshlanadi. Bunday bo'linishning sababi til har bir muayyan tushunchani, mustaqil so'zni alohida ifodalashga qodir emasligi tufayli bo'lib, V.V. Vinogradovning qayd etishicha, "hayotiy tajriba cheksiz bo'lsa-da, eng boy tilning ham resurslari qat'iy cheklangan bo'ladi". Tilning leksik tizimida u yoki bu tushunchalarni ifodalash imkoniyatlarini ko'paytirish jarayonini quyidagi ikkita asosiy yo'nalishda amalga oshirish mumkin:

1. So'z ma'nosining leksik-semantik o'zgarishlari, ya'ni bir so'z chegarasida, so'z shaklining aynan bir xilligini saqlab qolgan holda, ma'nolarining soni ortishi tufayli.

2. So'z ma'nosining boshqa so'zlar bilan birikishi oqibatida so'z birikmalarini hosil qilish orqali. Bunda so'z ma'nosi leksik-frazeologik birikmaning bog'lanishlari tufayli termin darajasidan chiqib ketadi.

O'zbek turizm terminologiyasini leksik-semantik jihatdan tadqiq etar ekanmiz, uning katta qismi chetdan (aynan ingliz terminologiyasidan) so'z o'zlashtirish vositasida shakllanganligini ta'kidlaymiz. Zero, mutlaqo o'zlashma so'zlarsiz sof tilning o'zi yo'q. Tarixiy taraqqiyot mobaynida turli millat va elatlarning har xil ko'lamdagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalari natijasida ba'zan ixtiyoriy, ba'zan esa ma'lum bosim ostida insonlar tomonidan boshqa etnik guruhlar so'zlari qabul qilingan. Xususan, tadqiqotimiz asosida o'zlashtirish jarayoni bilan bog'liq lingvistik hodisalarga ko'proq e'tibor qaratamiz.

O'zbek turizm terminologiyasi ba'zi hollarda o'ziga hos terminlarni bevosita so'zma-so'z tarjima orqali o'zlashtirsa, ko'p hollarda chuqurroq mushohadani talab etuvchi jarayoniga g'arq bo'lishni talab etadi. Tarkibiy komponentlari bir ma'noli yoki asosiy (tayanch) ma'nosi yaqqol dominant bo'lgan terminlarning o'zlashtirilishi evosita tarjima orqali amalga oshadi. Masalan, departure card (ketish/jo'nash varaqasi), arrival card (kelish varaqasi), agency agreement (agentlik shartnomasi), airport terminal (aeroport terminali), farm tourism (ferma turizmi), agency coupon (agentlik kuponi), alternate airport (muqobil aeroport), air carrier (havo tashuvchisi), baggage tag (yuk/bagaj yorlig'i), excess baggage (ortiqcha yuk), dome car (gumbazli avtoullov), connecting flight (ulovchi parvoz), one-way ticket (bir tomonlama chipta), direct selling (bevosita sotuv/savdo), e-ticket (elektron chipta), duplicate reservation (takroriy buyurtma), industrial tourism (industrial/sanoat turizmi), Hajj Pilgrimage (Haj ziyorati), mass tourism (ommaviy turizm), seasonality (mavsumiylik), transit traveler (tranzit sayyoh/yo'lovchi), aquatic sports (suv sporti), cultural heritage (madaniy me'ros), field sports (dala sporti), hotel tariff (mehmonxona tarifi).

Baggage room, auto rental leksemalarini o'zlashtirishda o'zbek tiliga ularning ikki komponentli bitta qo'shma so'zga aylanganini kuzatishimiz mumkin: yukxona, avtoijara.

Cafeteria, Business Class, duty-free, ecotourism, agritourism, ethnic tourism, business center, festival, catering, force majeure terminlari yengil orfografik o'zgarishlar bilan «o'zbekchallashtiriladi».

Couchette, diversification, brochure, theme park, sanatorium, planetarium terminlaridagi xorijiylik o'ttenkasini olib tashlash maqsadida ularning o'zagi saqlanib, qo'shimcha plani o'zgaradi:

- 1) *couchette* – kushetka
- 2) *diversification* – diversifikasiya;
- 3) *brochure* – broshura;
- 4) *theme park* – tematik park;
- 5) *sanatorium* – sanatoriy;
- 6) *planetarium* – planetariy.

Ushbu so'zlarni o'zlashtirish jarayonida qardosh rus tilining ta'siri yaqqol seziladi. Zero, yangi ko'rinish kasb etgan leksemalar affiksasiyasi rusiyzabon xarakterga ega.

Seaplane, flying boat terminlari transport taraqqiyotidagi yangiliklarni o'zida namoyon etib, tarkibiy komponentlari turli transport turlarining gibrid birikmasidan iborat bo'lgan tushunchani ifodalaydi (ya'ni *dengiz samolyoti* va *uchar qayiq* shaklida).

So'z birikmasining leksik-frazeologik o'zgarishi ko'pincha erkin so'z birikmasining ma'no jihatdan o'zgarishi va frazeologik birlikning paydo bo'lishi bilan kechishi mumkin. Bu terminlar hosil bo'lishining eng mahsuldor usuli hisoblanadi. Hozirgi zamon tilshunosligida "birikma" va "so'z birikmasi" terminlari va bu terminlar bilan bog'liq tushunchalar ko'pincha bir-biridan farqlanmay, bir-biridan yetarli darajada chegaralanmay qo'llanadi. Hatto rus tilshunosligida so'z birikmasi nazariyasini ishlab chiqqan va bu sohada juda ko'p ilmiy tadqiqotlar olib borgan akad. V.V. Vinogradov o'zi ham ayrim hollarda "so'z birikmasi", keng ma'noda "birikma" shaklida qo'llaydi. Bir xil grammatik tuzilishga ega bo'lgan, bir xil so'z turkumlaridan tashkil topgan, hatto tobe va hokim komponentlari bir xil so'zlardan bo'lgan birikma o'rni bilan so'z birikmasi bo'lishi va o'rni bilan so'z birikmasi bo'lmasligi ham mumkin.

REFERENCE.

1. Xamrayeva Nilufar. (2024). SOCIOLINGUISTIC COMPETENCE AND SOCIOCULTURAL ASPECT OF LANGUAGE. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(17), 466–471. Retrieved from <https://humoscience.com/index.php/itse/article/view/2368>
2. Xamrayeva, N. ., & Olimova , M. . (2023). SOTSIOLINGVISTIKA VA DIALEKTOLOGIYA. *Theoretical Aspects in the Formation of Pedagogical Sciences*, 2(6), 149–154. извлечено от <http://www.econferences.ru/index.php/tafps/article/view/4872>
3. Xamrayeva, N. ., & Olimova , M. . (2023). SOTSIOLINGVISTIKA VA DIALEKTOLOGIYA. *Theoretical Aspects in the Formation of Pedagogical Sciences*, 2(6), 149–154. извлечено от <http://www.econferences.ru/index.php/tafps/article/view/4872>
4. Yusupova, N., [Nigmatovna]. (2024). ANALYSIS OF TECHNOLOGY AND METHODS OF USING MIXED EDUCATION IN TEACHING ENGLISH. *Innovations in Technology and Science Education*, Vol. 2 No. 17 (2023)(17), 472–479.
5. Yusupova, N. (2021b). ZAMONAVIY O 'QITISH METODLARIDA ROL O 'YINLARINI KENG QO 'LLANILISHI: WIDE USE OF ROLE GAMES IN MODERN TEACHING METHODS. *FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI*, 2(2181–1776), 2. <https://journal.bilig.uz/isepsmj/article/view/1013/981>

6. Юсупова, Н. Н. (2021). ПРИМЕНЕНИЕ ПРАГМАТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ НА ЗАНЯТИЯХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА. Экономика и социум, (4-2 (83)), 1248-1253.

7. Yusupova, N., [Nigmatovna]. (2024b). INCREASING STUDENT'S INTEREST IN ENGLISH LANGUAGE IN MIXED EDUCATION TECHNOLOGY. "PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION," Vol. 1 No. 18 (2024)(Vol. 1 No. 18 (2024): PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION), 1. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10636443>

8. Yusupova, N., [Nigmatovna]. (2023b). PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI MUHITIDA ARALASH TA'LIMNI QO'LLASH TEXNOLOGIYASI. Innovative Development in Educational Activities, 2(19), 5. <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1699/2717>

9. Yusupova, N., [Nigmatovna]. (2021c). The involvement of teacher's: calling students to speak. International Journal of Academic Multidisciplinary Research (IJAMR), 5(2), 68-71.

<https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=1606850095046738607&btnI=1&hl=ru>

10. Azamatovna, B. S., & Salijanovna, I. S. (2020). Classification of could words in german and Uzbek. PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology, 17(6), 7333-7339.

11. Bekmuratova, S. A. (2019). GRAMMATIC FEATURES OF DOUBLE WORDS IN GERMAN AND UZBEK LANGUAGES. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(5), 248-252.